

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida san'at markazida tasviriyl faoliyatining
ahamiyati**

Jizzax viloyati Zarbdor tumani

2-DMTT tarbiyachisi

Nishonova Nargiza Abdumuxammad qizi

Annotatsiya; bolalarni tabiat, musiqa va ijod dunyosiga jalb qilish va bolani o'rgatish; mustaqil ravishda bilimlarni egallash, bilimga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishga, yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyoj, o'rganish va rag'batlantirish, shu bilan birga sub'ekt bo'lish

Kalit so'zlar: o'yin, mustaqil nutq, kognitiv, kommunikativ, kognitiv-tadqiqot, eksperimental, ijodiy, kommunikativ, mehnat, samarali, musiqiy va badiiy.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik didini shakllantirish, tasavvur va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda "San'at" markazi muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik qarashlar bolalar uchun ijodiy muhitni shakllantirishni zarurat deb hisoblaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida san'at faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va uni moddiy-texnik jihatdan to'liq ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida san'at markazidagi faoliyatni qanday tashkil etamiz? degan savol tug'ilishi tabiiy. San'at markazi bog'chadagi tinch markazlardan biri bo'lib, ushbu rivojlantiruvchi markazni jihozlashda qanday jihozlar, ko'rgazmalar, o'quv qurollari bo'lishi lozim? Albatta bu markazda rangli qalamlar, rangli bo'yoqlar, plastlin, har bir bola uchun aloxida loy ishida foydalanishga doskacha, rasmlarni kraskada bo'yash uchun mo'yqalamlar, oq qog'oz, yelim, rangli qog'oz, yelimli qog'ozlar, bezaklar, qaychi hamda bolalarni ijodiy yondashishga va fikirlashga yordam bera oladigan mavzuga oid ko'rgazmalar bo'lishi va na'muna uchun suratlar asosida jihozlashimiz maqsadga muvofiqdir. San'at markazida bolalar rasm chizish, applikatsiya qilish, plastlindan narsa yoki buyumlar yasashni o'rganadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan badiiy faoliyatning har bir turi ham umumiy estetik ta'sirdan tashqari o'zining maxsus ta'sir kuchiga ega. Sa'nat markazida o'yinlar tasviriyl faoliyat, rasm chizish, plastilin (loy) bilan ishlash, applikatsiya turlariga bo'linadi. San'at markazida tasviriyl faoliyat zarur jihozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar,



bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari bo'lishi shart. Bolaning rivojlanishi faqat o'quv faoliyatida emas, balki o'yin tarzida ham amalga oshiriladi. Markazlardagi bolalarning o'yin va kognitiv faoliyati davomida tarbiyachi bolalarning ishini kuzatib boradi, tavsiya etilgan materiallar bolalar uchun qanchalik qiziq, qulay va xavfsiz ekanligiga e'tibor qaratadi. Rivojlanish markazlarida to'g'ri tashkil etilgan ishlar har bir bolaga o'ziga yoqadigan narsani topishga, uning kuchli va qobiliyatiga ishonishga, kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganishga, tushunishga imkon beradi va ularning his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini baholashga imkon beradi va aynan shu rivojlanayotgan ta'lim asosida yotadi. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Asosiy maqsadlardan yana biri zamonaviy tasviriy san'at orqali bolalardagi qobiliyat xamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni to'g'ri shakllantirish va yuzaga chiqarishdir. "Maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda albatta bajaramiz"[1]. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish zarur. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsa-da, ularni bir yo'nalish, maqsad bo'yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o'ziga xos ko'rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdagi mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari – bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha guruhlarida aniq bir vaqtda,



kun tartibi asosida uyushtiriladi. Hamma faoliyatlar uch qismga bo'linadi: – mashg'ulotning boshlanishi– topshiriqni tushuntirish; – mashg'ulotning borishi– topshiriqni bolalar tomonidan bajarilishi; – mashg'ulotning yakuni–bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rasm faoliyatini san'at markazlarida rejalashtiriladi[9]. Tasviriy san'atning o'ziga xos murakkabliklarini tushunib, uning nozik qirralarini maktabgacha yoshdagi bolalarga ulashish mahoratiga ega bo'la oladigan tarbiyachilarni etishtirib chiqarish vazifasi turibdi. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rasm chizishga o'rgatish 3 yoshdan boshlanadi. Bu davrda bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushlash va qog'oz ustida yuritishga o'rganadi. Lekin bu prosessda rivojlanmaydi, bola qalamni to'g'ri ushlashni bilmaydi, tarbiyachi asta sekin to'g'ri ushlashga odatlantiradi, bolani bajarayotganligini emas balki, qalamning harakatini uning uchi bilan qog'oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to'g'ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chizadi, qog'oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta sekin murakkablashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlarini bilan rasmga qarab hikoya qilish, maktabda esa tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, xaykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlari xilma-xildir: rasm chizish, loy, applikatsiya, qurishyasash mashg'ulotlari xisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida keltirilgan faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli xal etilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasvirlash faoliyatlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyatlarda, qalam hamda mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu esa, malakani egallash, bolalarda qo'lini engil, erkin bir tekisdagi xarakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakl, kattalik, proportsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga karab yo'nalishni saqlash zarurligiga, predmetning kattaligiga mos ravishda xarakatlanishga o'rganadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida materialdan tartibli foydalanishga, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan hamda ularni

ishlatish yo'llarini rejalashtirishga o'rganadilar. Bu faoliyatlar bolalarda diqqatni va ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Shunday qilib, tasviriy faoliyatlarda bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali maktabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqea-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'lalilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatleri-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatleri ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baxolash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bo'lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi. Tasviriy faoliyat-bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi xisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish bu estetik sezgining bo'laklari xisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi - rangi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqdir. Bola rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa, shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishni rivojlantiradi. Ularda tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan xis-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ilm yo'li" variativ dastur, Toshkent 2019
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni O'RQ-637-coh 23.09.2020. 8- moddasi
4. "Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Xalq so'zi gazetasi 30.09.2020
5. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.
6. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. Toshkent 2018 yil (Maktabgacha ta'lim vazirligi)



7. Mamirova Z.U., Niyozova G.B. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish" Science and Education" Scientific Journal January 2021 / Volume 2 Issue 1
8. .Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
9. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T.:2010y.